

O‘QITUVCHILAR BILAN ISHLASHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Umida Jabbarova Muxiddinovna

*Navoiy viloyati Karmana tumani MMTBga
qararashli 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab amaliyotchi psixologining o‘qituvchilar bilan ishlashdagi o‘rni, uning vazifalari hamda pedagogik jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixolog, o‘qituvchi, pedagogik jamoa, hamkorlik, stress, muloqot, psixologik yordam, kasbiy rivojlanish, muhit, maslahat

KIRISH

O‘qituvchi — bu shunchaki bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining hayotiga ta’sir qiladigan, uni tarbiyalaydigan va yo‘l ko‘rsatuvchi shaxsdir. Shuning uchun o‘qituvchi bir qator muhim sifat va fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Avvalo, o‘qituvchi bilimli va malakali bo‘lishi zarur. U o‘z fanini mukammal bilishi, yangiliklardan xabardor bo‘lishi va bilimini doimiy ravishda oshirib borishi kerak. Chunki zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan doimiy o‘shishni talab qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchi sabr-toqatli va mehribon bo‘lishi lozim. Har bir o‘quvchi turlicha bo‘ladi: kimdir tez o‘rganadi, kimdir sekinroq. O‘qituvchi har bir bolaga individual yondashib, ularni tushunishi kerak.

Yaxshi o‘qituvchi adolatli bo‘ladi. U barcha o‘quvchilarga teng munosabatda bo‘lib, hech kimni ajratmaydi. Bu esa o‘quvchilar orasida ishonch va hurmatni shakllantiradi. Bundan tashqari, o‘qituvchi yaxshi muloqot qila oladigan bo‘lishi kerak. O‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘qituvchining ishini yengillashtiradi va natijadorlikni oshiradi. Zamonaviy o‘qituvchi ijodkor va yangilikka ochiq bo‘lishi ham muhim. Darslarni qiziqarli va interaktiv tashkil etish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Yana bir muhim jihat — o‘qituvchining mas’uliyatli va fidoyi bo‘lishidir. U o‘z kasbiga mehr bilan yondashsa, o‘quvchilarda ham bilimga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Maktab tizimida ta’lim sifatini oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati va ruhiy holatiga bog‘liq. Shu sababli maktab amaliyotchi psixologining o‘qituvchilar bilan ishlashi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Psixolog nafaqat o‘quvchilar bilan, balki pedagogik jamoa bilan ham samarali hamkorlik olib borishi zarur.

O'qituvchilar faoliyati ko'pincha katta mas'uliyat, stress va emotsional zo'riqish bilan bog'liq bo'ladi. Dars jarayoni, o'quvchilar bilan ishlash, hujjatlar yuritish va boshqa vazifalar o'qituvchining ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois psixologning asosiy vazifalaridan biri — o'qituvchilarga psixologik yordam ko'rsatishdir.

Psixolog o'qituvchilar bilan ishlashda avvalo ularning psixologik holatini o'rganadi. Suhbatlar, kuzatuvlar va diagnostik metodlar orqali pedagoglarning ehtiyojlari aniqlanadi. Bu esa ularga mos yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Shuningdek, psixolog tomonidan o'tkaziladigan treninglar va seminarlar o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlar orqali pedagoglar stressni boshqarish, samarali muloqot qilish, konfliktlarni hal etish kabi muhim ko'nikmalarni o'zlashtiradi.

Maktab amaliyotchi psixologi pedagogik jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Jamoada o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlik muhitini yaratish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

O'qituvchilar bilan individual ishlash ham muhim ahamiyatga ega. Psixolog har bir pedagogning muammolarini tinglab, ularga individual tavsiyalar beradi. Bu esa o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Shuningdek, psixolog o'qituvchilarga o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha maslahatlar beradi. Xususan, qiyin xulqli o'quvchilar bilan ishlash, sinfda intizomni saqlash va o'quvchilarni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etadi.

Ota-onalar bilan ishlash jarayonida ham psixolog o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Ular o'rtasida samarali muloqotni yo'lga qo'yish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. U eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi darkor. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi, ularning yana-da boyishiga ishonch bildirishi u bilan ijobiy munosabat o'rnatishga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi kasb etikasi nuqtayi nazaridan talab va qoidalarga kiradi. O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni

tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishni o‘zining kasbiy burchi, deb bilishi kerak. Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo‘lish, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida rivojlanib boradi. Yosh, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta’minlanadi.

Yuqoridagi kabi talablar asosida pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda o‘qituvchining jamoadagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarda unga nisbatan hurmat hissi shakllanib boradi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish – pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O‘z davrlarida Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘z asarlarida o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o‘zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari zamirida bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish hamda pedagogik jarayonda o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g‘oyalarning hayotda mavjudligini ta’minlash yo‘lida qudratli vosita ekanligiga ishonch hosil qildira olishda o‘z aksini topadi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o‘zida aks ettirgan yangi va o‘z o‘rnida xalqchil muhim yuridik hujjat bo‘lib, mamlakatimiz ta’lim sohasining istiqboli uchun yo‘llanmadir. Mazkur Qonun g‘oyalarni amalga oshirish jarayonida pedagog kadrlar muhim rol o‘ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma’naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo‘la olishi maqsadga muvofiq sanaladi. Qolaversa, bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan jamiyatda o‘qituvchi va murabbiylarning obro‘-e’tibori va maqomini ko‘tarish, o‘quv dasturlari va metodikasini to‘liq qayta ko‘rib chiqish, maktabni ta’limning keyingi

bosqichlari bilan uzviy bog‘lash, o‘qituvchilarni ortiqcha qog‘ozbozlikdan xalos etib, o‘z ustida ko‘proq ishlashi uchun sharoit yaratish va rag‘batlantirish, maktab infratuzilmasi va undagi ma‘naviy muhitni yaxshilash kabi masalalarning yechimlari yuzasidan aniq vazifalar belgilab berilmoqda. Mamlakatimizda xususiy ta‘lim muassasalariga keng sharoit yaratilayotgani bois eksperiment tariqasida kam quvvatda ishlayotgan maktablarni tanlov asosida salohiyatli talabgorlarga ishonchli boshqaruvga berish takliflarining bildirilayotganligi, shuningdek, ta‘limning ushbu jarayoniga Davlat rahbari darajasida qaratilayotgan e‘tibor – biz kabi bo‘lajak pedagoglarga ham pedagog shaxsi va unga qo‘yilayotgan talablarga mos tarzda sifatli ta‘lim olib, o‘z ustimizda tinim bilmay ishlashimiz uchun mas‘uliyatli da‘vat hisoblanadi. Zotan, yurtimizning kelajak avlod vakillarini ayni vaqtda biz kabi oliy ta‘limda tahsil olayotgan yosh pedagoglar tarbiyalaydilar.

O‘qituvchining o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir qiladi. To‘g‘ri yondashuv nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Avvalo, o‘qituvchi o‘quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Har bir bola alohida shaxs ekanligini tan olib, uning fikri va hissiyotlarini qadrlash muhimdir. Bu o‘quvchida o‘ziga ishonchni oshiradi. Shuningdek, o‘qituvchi mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi zarur. O‘quvchi xato qilganda uni tanqid qilishdan ko‘ra tushuntirish, yordam berish va yo‘l ko‘rsatish samaraliroq natija beradi.

O‘qituvchi adolatli bo‘lishi ham juda muhim. Barcha o‘quvchilarga teng munosabatda bo‘lish, baholashda xolislikni saqlash sinfda ishonch muhitini yaratadi.

Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarga sabr bilan yondashishi kerak. Har bir bola turli tezlikda o‘rganadi, shuning uchun shoshiltirmasdan, ularni tushunishga harakat qilish lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lishi zarur. Ularning kichik yutuqlarini ham e‘tirof etish o‘quvchilarda motivatsiyani oshiradi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan ochiq va samimiy muloqot o‘rnatishi kerak. Bu orqali o‘quvchilar o‘z muammolarini bemalol ayta oladi va o‘qituvchiga ishonch paydo bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab amaliyotchi psixologi o‘qituvchilar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi. Uning faoliyati pedagoglarning ruhiy holatini yaxshilash, kasbiy rivojlanishini ta‘minlash va maktabda sog‘lom psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil

2. 30-oktabrdagi “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi” bo’yicha videoselektor yig’ilishidagi nutqi;
3. Azimova T. Pedagogik-psixologik tashxis va uning o’quv jarayonidagi ahamiyati. – Toshkent. 2017.
4. Ziyamammedov B. Pedagogika. – Toshkent. 2014.
5. Omonov, A. O. O., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O’RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O’RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
6. Turg’Unboyeva, M., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O’QITISHDA “O’TTIZ YILLIK URUSH” NING AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
7. Ziyonet